



**TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARDA IJTIMOIIY-MADANIY
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA JADIDCHILIK
G'OYALARINING O'RNI**

Muzropova Guljamol Mardonovna

muzropovagulzamol@gmail.com

Navoiy Davlat Universiteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi

kafedrası o'qituvchisi

Anotatsiya: Mazkur maqola o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda jadidchilik g'oyalarining ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Jadidchilik, milliy madaniyat va ta'lim tizimini zamonaviylashtirishni maqsad qilgan harakat sifatida, o'qituvchilarning shaxsiy va malakali rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Maqolada jadidchilik g'oyalarining ta'lim jarayonidagi yangiliklarga bo'lgan yondashuvlari, o'qituvchining ijtimoiy va madaniy kompetentligini oshirishga qaratilgan usullar, shuningdek, bu g'oyalar orqali o'qituvchilarga zamonaviy ta'limning ijtimoiy, madaniy va etnik qadriyatlar asosida rivojlanishini ta'minlashdagi o'qituvchilarning roli tahlil qilinadi. Jadidchilikning pedagogik konsepsiyalari, o'qituvchilarning mahoratlik darajasini oshirishda muhim omil sifatida ko'rsatilgan bo'lib, ta'limda innovatsiyalar va ijtimoiy integratsiya jarayonlarida o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligi muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: o'qituvchilar, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, jadidchilik g'oyalari, ta'lim tizimi, pedagogika, innovatsiyalar, madaniy qadriyatlar, ta'limda yangiliklar, ta'lim metodikalari,, pedagogik konsepsiyalar, ta'lim jarayoni.

**THE ROLE OF INTELLECTUALISM IDEAS IN THE
DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE IN TEACHERS.**

Muzropova Guljamol Mardonovna

muzropovagulzamol@gmail.com



*Teacher, Department of Fine Arts and Engineering Graphics,
Navoi State University*

Abstract: *This article is devoted to the study of the importance of Jadidism ideas in the development of socio-cultural competence in teachers. Jadidism, as a movement aimed at modernizing the national culture and education system, had a great influence on the personal and professional development of teachers. The article analyzes the approaches of Jadidism ideas to innovations in the educational process, methods aimed at increasing the social and cultural competence of teachers, as well as the role of teachers in ensuring the development of modern education for students based on social, cultural and ethnic values through these ideas. The pedagogical concepts of Jadidism are shown as an important factor in increasing the level of teacher competence, and the socio-cultural competence of teachers plays an important role in the processes of innovation and social integration in education.*

Keywords: *teachers, socio-cultural competence, ideas of Jadidism, education system, pedagogy, innovations, cultural values, innovations in education, educational methodologies, pedagogical concepts, educational process.*

“Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmuk uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur.

Mahmudxo‘ja Behbudiy

Biz yoshlarga har tomonlama buyuk qurg‘on bo‘la oladigan jadidlarimizning g‘oyasi — Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir. Bunga, misol tariqasida keltirilgan Mahmudxo‘ja Behbudiyni fikrlariga e‘tibor qaratishimiz lozimdir. Millatparvar jadidchilarning tarixini, hayoti va faoliyatini o‘rganganimiz sari ular barhayot bo‘laveradi, bizda ularga nisbatan g‘urur va iftixor tuyg‘usi jo‘sh uraveradi. Har bir davrda va millatning har bir farzandi ruhida boqiy yashab kelayotgan, Vatanning mustabidlar zulmidan ozod bo‘lishini,



elga erk, hurriyat istagan xalqimizning qalbi uygʻoq farzandlari boʻlmish jadidlar hamisha fikru yodimizni egallaydi.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Oʻrta Osiyo, xususan, Turkiston hududida keng tarqalgan ilmiy-ijtimoiy va madaniy yangilanishlar harakati sifatida tarixiy ahamiyatga ega boʻlib, taʼlim, ilm-fan, ijtimoiy va madaniy sohalarda tub islohotlar oʻtkazishga chaqirdi. Jadidchilikning oʻziga xos gʻoyalari, oʻqituvchilarning pedagogik yondashuvlarini yangilash, bilim olish va tarbiyalash usullarini takomillashtirishni maqsad qilgan. Bugungi kunda biz ham jadidlarning milliy harakatlari gʻoyasidan, taʼlim tizimini zamonaviylashtirish, boʻlajak oʻqituvchilarni zamonaviy pedagogik va ijtimoiy-madaniy kompetentlikka ega boʻlishida unumli foydalanishimiz mumkin.

Jadidchilik harakati, Oʻrta Osiyo va Turkistondagi ijtimoiy-maʼrifiy islohotlarning koʻlamli gʻoyalariga asoslanadi. Jadidchilar taʼlim tizimida muhim islohotlarni amalga oshirishni, ijtimoiy tenglik va xalqni ilm-fan bilan taʼminlashni maqsad qilganlar. Bugungi kun zamonaviy taʼlim sohasidagi izchil oʻzgarishlar ham buni isbotidek. Taʼlimni zamonaviylashtirish, oʻquvchilarga ilmiy bilimlar, axloqiy-etik qadriyatlar, va jamiyatda faol ishtirok etish qobiliyatlarini oʻrgatish zarurligini taʼkidlaganlar. Bu, oʻqituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini oshirishga yordam beradi. Ular yangi oʻquv metodikalarini joriy qilish, anʼanaviy dars berish usullarini zamonaviylashtirishga intilganlar.

Jadidlarning har birlari gʻoyalrini oʻrganar ekanmiz barchasi xuddiki tugab bitmas maʼnaviyat toʻgʻidek. Togʻdagi xazinadan sekin astalik bilan foydalanar ekansiz, haqiqiy duru jovohirlar egasi boʻlasiz guyo. Jadidchilik, jamiyatda ijtimoiy tenglikni taʼminlashga, ayollar va erkaklar oʻrtasidagi farqlarni yoʻqotishga qaratilgan gʻoyalarni ilgari surgan. Bu oʻqituvchilarga jamiyatdagi ijtimoiy oʻzgarishlarga tayyor boʻlishni, oʻzlarining pedagogik faoliyatida ijtimoiy-axloqiy masʼuliyatni his qilishni oʻrgatgan.

Jadidchilik harakati, milliy madaniyatni saqlashni, ammo uni zamonaviy ilm-fan va taʼlim bilan boyitishni maqsad qilgan. Bu, oʻqituvchilarga oʻz xalqining tarixiy va madaniy merosini, uning qadriyatlarini oʻquvchilarga etkazish, shu bilan birga,



xalqaro madaniyat bilan tanishtirishni talab qilgan. Jadidchilik harakati g'oyalarning ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishdagi roli keng qamrovli bo'lib, bu jarayonda bir nechta asosiy elementlar ajralib turadi.

Jadidchilik harakati, o'qituvchilarga ijtimoiy va madaniy ongni shakllantirishda katta rol o'ynadi. Bu harakat, o'qituvchilarni jamiyatning zamonaviy muammolariga duch kelishga va ularni hal qilish uchun o'quvchilarga zarur bilimlar va ko'nikmalarni berishga tayyorlashni maqsad qilgan. Bu o'qituvchilarda ijtimoiy adolat, inson huquqlari, tenglik kabi qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

O'qituvchilarga milliy madaniyatni saqlashni va uni ilm-fan bilan boyitishni ta'lim tizimiga kiritishni o'rgatdi. Bu, o'qituvchilarni o'z xalqining madaniy merosi, til va tarixiga hurmat bilan qarashga, shu bilan birga, boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan muloqotda bo'lishga tayyorlashni o'z ichiga oladi.

O'qituvchilarga pedagogik texnologiyalarni va innovatsion yondashuvlarni ta'lim jarayoniga kiritishga chaqirdi. Bu o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini yanada kengaytirib, ularni o'quvchilarga zamonaviy bilimlarni etkazish jarayonida yanada samarali bo'lishga undaydi.

Jadidchilik harakati, o'zining ilmiy-ijtimoiy islohotlari bilan O'rta Osiyo va Turkiston hududidagi ta'lim tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi. O'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda bu harakatning o'rni beqiyosdir. Jadidchilar ta'lim tizimiga innovatsiyalarni kiritish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash, milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratganlar. Ularning g'oyalari, o'qituvchilarga faqat bilim berish emas, balki jamiyatning har bir a'zosi sifatida ijtimoiy va madaniy mas'uliyatni his qilishga ham yo'naltirilgan. Bu, o'z navbatida, o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Milliy maktab yaratish, yangi avlodni voyaga yetkazish ishtiyoqida mardonavor qadam tashlagan, otashin nutqlari bilan xalqning g'ururini uyg'otgan, mohir pedagoglarning orzulari bugun mustaqil diyorumizda amalga oshgandek. Jadidlarmizning har biri bugungi yosh avlodga samodan boqib turgandek. Millatning daholari g'oyalari va millatning qayg'usi ila mangu ketgan bo'lsada hamisha biz yosh avlod uchun tirikdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdurashidov M. “Jadidchilik harakati va uning O‘zbekiston taraqqiyotiga ta’siri”. Toshkent, 2020.
2. Saidov U. “Ma’rifiy jamiyat tamoyillari va jadidchilik”. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2021.
5. Tolibovich, S. S., & Mardonovna, M. G. (2023). EXPRESSION OF REALITY IN MODERN UZBEK FINE ART. Science and Innovation, 2 (2), 16-19.
6. Mardonovna, M.G. (2023). ZAMONAVIY MODADA USLUBLARNING O‘RNI. Journal of Integrated Education and Research, 2(11), 18-22.
7. Guljamol, M. (2023). SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2 (3), 191-197.
8. Mardonovna, M. G. (2023). The importance of the traditions of the teacher and disciple in the study of the traditional applied art of Bukhara. Intent Research Scientific Journal, 2 (2), 22-26.
9. Mardonovna, M. G. (2021). Artistic aspects of Bukhara applied art of the XIX century “On the example of Bukhara art ceramics”. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2 (2), 61-62.
10. Abdullaev A., Bobomurodova S., Juraeva O. THE ADVANTAGES OF AN INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING AND DEVELOPMENT METHODS OF THE ARTISTIC AND TECHNICAL SKILLS OF STUDENTS IN VISUAL ARTS CLASSES //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. B1. – C. 335-339.
11. Bobomurodova S. A. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATION-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH MODELI //Inter education & global study. – 2024. – №. 1. – C. 73-82.
12. Choriyev S. et al. AKADEMIK RASM CHIZISHNING O‘ZIGA XOS QONUN VA QOIDALARINI O‘RGANISH //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND



PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". – 2023. – T. 1. – №. 01.

13. Sa'diyev S. DARSDAN TASHQARI TO 'GARAK MASHG 'ULOTLARIDA O 'QUVCHILARNI TASVIRIY SAVODXONLIKKA OID KO 'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA //Молодые ученые. – 2024. – T. 2. – №. 5. – С. 65-67.

14. Sadiyev S. INVESTIGATING FUTURE CREATIVE PROFESSIONALS IN THE TRADITION OF THE REALISTIC SCHOOL OF FINE ARTS //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B4. – С. 156-159.

15. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS' ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B9. – С. 106-108.

16. Xamidova G. X. CHIZMACHILIK FANINI O 'QITISHDA GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH VA METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH //Inter education & global study. – 2024. – №. 1. – С. 34-44.

17. Xamidovna X. G., To'xtaqulovna V. A. TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, HOZIRGI TA'LIM TIZIMIDAGI O 'ZGARISHLAR VA XORIJIY DAVLATLARNING NUFUZLI OTMLARIGA QISQA MUDDATLI MALAKA OSHIRISH //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – T. 3. – №. 29. – С. 87-91.

18. Shovdirov S. Analyzing the sources and consequences of atmospheric pollution: A case study of the Navoi region //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 587. – С. 02016.

19. Шавдиров С. А. Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности //Педагогическое образование и наука. – 2017. – №. 2. – С. 109-110.

20. Shavdirov S. A. Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1.



21. Шавдиров С. А. Ўқувчиларда тасвирий саводхонликка оид ўқув компетенцияларини шакллантиришнинг педагогик-психологик жиҳатлари //Современное образование (Узбекистан). – 2017. – №. 6. – С. 15-21.
22. SAN'AT S. A. S. T., TA'LIMIDA O. Q. O. Q. U. V., TALABLARI K. S. T. T. P. SAI. 2023.№ Special Issue 13 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tasviriy-san'at-ta'limida-o'quvchilarning-o'quv-kompetensiyalarini-shakllantirish-tizimini-takomillashtirishning-pedagogik> (датаобращения: 03.12. 2023)